

## OILADA XOTIN QIZLARNI MAJBURIY MEHNATGA JALB QILISH VA ULARNING IJTIMOIIY – PEDAGOGIK SABABLARI

To'raqulov Laziz Tirkashevich, katta o'qituvchisi  
Qo'shoqova Go'zal Uzoqboy qizi, talabasi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oilada xotin-qizlarni majburiy mehnatga jalb qilish va ularning ijtimoiy-pedagogik sabablari haqida ma'lumot berilgan hamda bugungi kunda yurtimizda xotin – xotin qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:**xotin-qizlarimizning huquqlari, gender tenglik, ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy psixologiya, oila pedagogikasi, jamoatchilik, jinoyatchilik, xotin – qizlar, huquq va majburiyat.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о привлечении женщин к принудительному труду в семье и их социально-педагогических причинах, а также информация о возможностях, созданных для женщин и девушек в нашей стране на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** права женщин, гендерное равенство, социальная педагогика, социальная психология, семейная педагогика, общество, преступность, женщины-девочки, права и обязанности.

2022-yil 20-iyul kuni Konstitutsiyaviy komissiya, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti, "Barqaror rivojlanish markazi" NNT tomonidan BMT vakolatxonasi hamda YeXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi ko'magida "Jahon konstitutsiyalaridaxotin-qizlar huquqlari to'g'risidagi qoidalarning aks etishi" mavzuida xalqaro jamoatchilik eshituvi uyushtirildi.

Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari hamda xalqaro ekspertlar qatnashdi.

Jamoatchilik eshituvining maqsadi — O'zbekistan va xorijiy davlatlarning ayollar, xotin-qizlarning qadr-qimmat, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash, sohaning konstitutsiyaviy- huquqiy asoslarini rivojlantirish borasidagi tajribasi borasida o'zaro fikr almashish hamda shu asosda "O'zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga tegishli takliflar ishlab chiqishdir.

Ishtirokchilar so'nggi yillarda gender tenglik masalasi O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini alohida e'tirof etdilar. Bunda, avvalambor, mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalalariga oid 40 dan ziyod normativ- huquqiy hujjatlar, xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida", "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" hamda "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi

yangi qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston xotin-qizlarni kamsitish va ta'qib qilishning barcha shakllaridan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy himoya etishni nazarda tutuvchi xalqaro shartnomalarga qo'shildi.

Mehnat kodeksi va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga xotin-qizlar uchun taqiqlangan kasbiy faoliyat sohalarini qisqartirish, qonunchilikdagi gender-assimetrik qoidalarni bartaraf etishga qaratilgan qo'shimchalar va o'zgartishlar kiritildi. Mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayollarning barcha sohalardagi samarali mehnati, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlarini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar tenghuquqli ekanliklari mustahkamlab qo'yilgan, davlatimiz Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi, Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi, Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risidagi konvensiyalarga qo'shilgan. O'tgan to'rt yilda yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirishga doir 15 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan va ijroga qaratilgan. Xususan, o'tgan yil ikkita muhim hujjat – "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Prezidentimiz qabul qilgan bir qator farmon va qarorlar davlat tashkilotlariga ayollar huquqlari bilan bog'liq vazifalarni belgilab, ularning mas'uliyatini oshirdi. "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ana shunday muhim hujjatlardan biri. Xalqaro Mehnat Tashkilotining Bosh konferensiyasi, xalqaro Mehnat Byurosining Ma'muriy kengashi tomonidan Jenevada chaqirilib va 1930-yilning 10-iyunida o'zining O'n to'rtinchi Sessiyasiga to'planib, zo'raki yoki majburiy mehnatga oid bir qancha takliflarni qabul qilishga qaror chiqarib va bu Sessiya kun tartibining birinchi bandi hisoblanib, mazkur takliflarga xalqaro konvensiya shaklini berishga qaror qilib, bir ming to'qqiz yuz o'ttizinchi yil iyun oyining yigirma sakkizinchi kunida, Xalqaro Mehnat Tashkiloti Ustavining qoidalariga mos ravishda Xalqaro Mehnat Tashkilotining a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilinishi maqsadida, quyidagi "Majburiy mehnat to'g'risidagi 1930-yilgi Konvensiya" deb nomlanishi mumkin bo'lgan Konvensiyani qabul qildi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining axborot xizmati xabariga ko'ra, o'rganishlar mazkur yo'nalishda ayrim kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, amaldagi qonunchilikka muvofiq mehnat munosabatlarida gender tenglik belgilangan bo'lishiga qaramasdan, mehnat bozorida xotin-qizlar munosib o'rineshga uchun ishga solinmagan imkoniyatlar saqlanib qolmoqda. Xususan, ayrim sohalarda ayollar ishtiroki juda kamligicha qolmoqda. Transport, qurilish, sanoat kabi yo'nalishlar shular jumlasidan. O'tkazilgan o'rganishlar davomida ishga qabul qilishda gender nuqtai nazardan 274 ta qonunbuzilarlik holati aniqlangan, ular asosan oily va o'rta maxsus ta'lim sohasi, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash tizimi va boshqa sohalarga to'g'ri kelmoqda. Bundan tashqari, xotin-qizlarning mehnatini muhofaza qilish yo'nalishida ish haqi to'lash bo'yicha ayollarning kamsitilishiga oid

qonunbuzilarlik holatlari aniqlangan. Joriy yilning birinchi yarim yilligida xotin-qizlar majburiy mehnatning turli shakllariga jalb etilganligi aniqlangan bo'lib, bunday holatlar oily va o'rta maxsus ta'lim sohasida, xalq ta'limida, sog'liqni saqlash tizimida, qishloq xo'jaligida va boshqa sohalarda qayd etilgan. Majlisda senatorlar mehnat bozorida ayrim gender nomutanosibliklarni bartaraf etish maqsadida davlat boshqaruvi organlarining vama halliy ijro hokimiyatlarining boshqaruv xodimlari tarkibida ayollar uchun kamida 30 foiz miqdorida kvota belgilash, shuningdek chet el tajribasini inobatga olgan holda, kasblarni ayollar va erkaklar kasblariga bo'lishning eski tushunchalarini bartaraf etishga qaratilgan maqsadli tashviqot ishlarini aholi o'rtasida tashkil etish bo'yicha takliflar bildirdi.

Joriy yil 4-aprel kuni Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi majlisi bo'lib o'tdi. Unda yalpi majlisga kiritilgan masalalar, shu jumladan, "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yana-da takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi. Majlis davomida kiritilayotgan yangi normalarning mazmun-mohiyati, uning ahamiyati bo'yicha ma'lumot berildi.

Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi, unda senatorlar, Qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi a'zolari, ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralar mutaxassislari ishtirok etdi.

Majlisda ayollarning oily ta'lim olishlari uchun yaratilgan nimkoniyatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va yanada kengaytirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganish yakunlari muhokama qilindi.

O'rganish natijalari xotin-qizlarning oily ta'lim olishlari uchun huquqiy, tashkiliy, amaliy jihatdan qator imkoniyatlar va imtiyozlar yaratilganligini hamda ular ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanayotganligini ko'rsatdi.

Jumladan, ta'lim tizimining sifati va samaradorligini oshirish, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida so'nggi 6 yil ichida 313 ta normativ-huquqiy hujjat (1 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12 ta farmoni va 65 ta qarori, hukumatning 169 ta qarori va 66 ta idoraviy qaror) qabul qilingan.

2022-yilda respublika bo'yicha oily ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bir milliondan ortib, ularning 47,8 foizini (492 333 nafar) xotin-qizlar tashkil etmoqda.

Davlat oily ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, 2022-yilda 12 300 nafar talaba-qizlarning 68,3 mlrd so'm miqdoridagi kontrakti to'lab berildi.

Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish yo'lga qo'yilib, ushbu maqsadlar uchun bugungi kungacha 139 mingdan ortiq talaba xotin-qizlarga 1 trln 300 mlrd so'm miqdorida foizsiz ta'lim kreditlari ajratilgan.

Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan 2 053 nafar talaba xotin-qizning ta‘lim kontraktlari mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz to‘lab berilgan Majlis davomida talabalarni turar joylarga joylashtirish tizimini raqamlashtirish, ijaradagi talaba qizlar uchun ijara pullarini o‘z vaqtida o‘tkazib berish masalari tanqidiy muhokama qilinib, tegishli vazirlik va idoralarga ko‘rsatmalar berildi.

Shuningdek, “El-yurt umidi” jamg‘armasining stipendiyalari asosida xorijiy davlatlar ta‘lim muassasalariga o‘qishga yuboriladigan stipendiatlar orasida xotin-qizlar ulushini oshirish maqsadida joylarda targ‘ibot ishlarini jadallashtirish, grantlar asosida chet elda bo‘lgan va amaliyot (stajirovka) o‘tagan xotin-qizlarni saralab, rahbarlik zaxirasiga kiritish va rahbarlik lavozimlariga tavsiya etib boorish zarurligi aytib o‘tildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. G‘oziyev E. G’ Ijtimoiy psixolohiya. Toshkent. 2016.
2. Волкова Е.Н. Ребенок и насилие: диагностика, предотвращение и профилактика: монография / Е.Н. Волкова, О.М. Исаева. Н. Новгород, 2015.290 с.
3. Психологическая помощь детям, пережившим насилие. Пособие для психологов. — СПб.: Санкт-Петербургская общественная организация «Врачи детям», 2015. — 60 с.
4. Ерусланова Р. И.Насилие в семье: Учебное пособие / Р. И.Ерусланова, К. В. Милюхин. М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К0», 2016. 208 с.
5. Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением //EurasianUnionScientists.2020. Т. 1. №. 10 (79). С. 48-49.
6. Каршибаева Г. А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека //Новости образования: исследование в XXI веке. 2022. Т. 1. №. 4. С. 459-464.
7. Каршибаева Г. А. Факторы и причины суицида //Scientific Impulse. 2022. Т. 1. №. 2. С. 651-656.
8. Abduqodirovna G. Q., Burxonovich A. S., O'skanov son Abdurashid M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. 2021. Т. 1. №. 7. С. 54-59.
9. Karshibayeva G. Диагностика суицидального поведения у подростков //Вестник интегративной. 2021. №. 22.С. 84-89.
10. Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p.
11. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)
12. Karshibayeva, G. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021

13. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
14. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р. Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент. 2022 й.
15. Каршибаева Г. А., Абдурасулов Р.А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент. 2022 й.
16. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.